

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

“YANGI O‘ZBEKISTON - MA‘RIFATLI JAMIYAT” KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA KONSENSUS MADANIYATINING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ КОНСЕНСУСА В РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ «ПРОСВЕЩЕННОЕ ОБЩЕСТВО» В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

IMPORTANCE OF CONSENSUS CULTURE IN IMPLEMENTING THE CONCEPT OF "ENLIGHTENED SOCIETY" IN THE NEW UZBEKISTAN

Rajabov O‘tkirjon Xursanaliyevich¹

¹Rajabov O‘tkirjon Xursanaliyevich

– Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Yangi O‘zbekistonda - ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensusdan foydalanish dolzarbligi, “inson qadri uchun” tamoyilining o‘zbek xalqi madaniyatidagi ro‘yobi hamda yot g‘oyalarga qarshi kurashishda konsensus madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi yoritilgan.

O‘zbek xalqining an‘ana, urf-odat va qadriyatlarini konsensus madaniyati bilan bog‘liqligi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada samarali va natijador bo‘lishi, davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, konfliktlarni oldini olishda konsensus madaniyatining tutgan o‘rni hamda uni qo‘llanish usullari tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье особое внимание уделяется важности использования консенсуса в реализации концепции «просвещенного общества» в Новом Узбекистане, реализации принципа «за человеческое достоинство» в культуре узбекского народа, а также значение консенсуса в борьбе с чуждыми идеями.

Статье автор подчеркивает связь традиций, обычаев и ценностей узбекского народа с культурой консенсуса, с эффективными и действенными реформами, проводимыми в стране, со взаимоотношениями государства, общества и личности, а также проанализированы методы применения культуры консенсуса предотвращения конфликтов.

Abstract

This article highlights the importance of using consensus in the implementation of the concept of "enlightened society" in New Uzbekistan, the realization of the principle of "for human dignity" in the culture of the Uzbek people, and the importance of forming a culture of consensus in the fight against foreign ideas.

The relationship between the traditions, customs and values of the Uzbek people with the culture of consensus, the more effective and efficient reforms implemented in the country, the relationship between the state, society and the individual, the role of the culture of consensus in preventing conflicts and its application methods are analyzed.

Kalit so‘zlar: ma‘rifatli jamiyat, konsensus, fazilat, qadriyat, an‘ana, ma‘rifatli jamiyat, dahldorlik, maslahat, foydali manfaat, konflikt, radikalizm, oila, usul, milliylik.

Ключевые слова: просвещенное общество, консенсус, добродетель, ценность, традиция, просвещенное общество, мужество, совет, выгодный интерес, конфликт, радикализм, семья, метод, национальность.

Key words: enlightened society, consensus, virtue, value, tradition, enlightened society, courage, advice, beneficial interest, conflict, radicalism, family, method, nationality.

KIRISH

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining “Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishi 71-maqsadida “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish vazifasi belgilangan. [1]

“Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishdan maqsad milliy-g‘oyaviy asoslarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning ma‘naviy yuksalishiga erishishdir.

Mazkur konsepsiyani amalga oshirishda xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil etish, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu jarayonda xalqaro tajribada keng qo‘llanadigan konsensus usulidan foydalanish konsepsiyani amalga oshirishda yuqori samara beradi. Chunki, konsensus mana shu jarayonda

ishtirok etishni ma'qullaydigan qaror qabul qilish modeli sifatida jamiyat a'zolarini faollikka chorlash orqali birlashtiradi. [2]

O'zbek millati tarixan o'troq tarzda hayot kechirgani va madaniy dehqonchilik bilan shug'ullangani tufayli tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, boshqa insonlarga hurmat, yon-atrofga ziyon yetkazmaslik, o'zaro hamkorlikda ishlash kabi tabiiy fazilatlar shakllanib borgan. Buning natijasida o'zbek millatining madaniy rivojlanish tarixi jarayoni boshqa insonlarga zarar yetkazmasdan, foydali mashg'ulotlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishish kabi ezgu maqsadni qamrab oldi. Albatta, boshqalarga ziyon yetkazmaslik uchun bir makon va zamonda insonlarning umumiy maqsad yo'lida birgalashib harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon pirovard natijada farovonlikka xizmat qilib, tinchlikni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi. Aynan konsensus — bir maqsad yo'lidagi umumiy kelishuvni anglatib, millatlararo va xalqaro tinchlik garovi hisoblanadi. [3] O'zbek xalqining bag'rikenglik, mehribonlik, mehmondo'stlik va bolajonlik kabi fazilatlarini zamirida ham aynan tinchlikni ulug'lash g'oyasi muhim o'rinda turadi.

“Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishdan maqsad mamlakatimizda yashayotgan fuqarolarni bilimli va ma'rifatli etish orqali faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va bu orqali keng qamrovli islohotlarda ishtirokini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda konsensus usulini madaniyat darajasiga olib chiqish, fuqarolarni fikr-mulohazalari va takliflarini doimiy eshitib borish va amaliyotda qo'llash islohotlarimizning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yangi O'zbekistonning rivojlanish va taraqqiyot yo'li — umuminsoniy qadriyat bo'lgan tinchlik, farovonlik va obodlik yo'lidir. O'zbek davlatchiligi asoschilaridan biri Amir Temur ham o'zi egallagan yurtlarni obod qilishni va o'sha yurtni obod bo'lishini qo'l ostidagilardan qat'iy talab qilgan. Natijada xalq ham, din ahllari ham Temurni qo'llab-quvvatladilar. [4] Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvida xalq bilan muloqot mexanizmi yaqqol namoyon bo'ladi. Amir Temurning ta'kidlashicha, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir. [5] Bu o'rinda kengash boshqalar bilan maslahatlashish, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ma'nolarini anglatadi.

O'zbek xalqining madaniyatida kengashish va maslahatlashish muhim o'rin egallaydi. “Yetti o'lchab – bir kes”, “Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona” kabi maqollarning zamirida ham konsensusning muhim komponenti bo'lgan maslahatlashish aks etadi. Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida e'tirof etgan vazir Nizomulmulk o'zining “Siyosatnoma” asarida “raiyat ahli, zulmi sitam ko'rgan har bir kishi, umuman norozi bo'lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazir va shohning o'zigacha qabullariga borib, shikoyati va maslahatini bayon qilishlari zarur” [6] deb ta'kidlaydi. Maslahatning insonlar hayotini yanada yaxshilash va qilinayotgan ishlarning yaxshi natija bilan yakunlanishi Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” asarining 128, 129, 130, 195, 417-boblarida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, 129-bobi “Mushovarat haqida” deb nomlanib, Hasan basriy (r.a.)dan quyidagi rivoyat keltiriladi: “U kishi qaysi bir jamoat (biror ishda) boshqa kishilardan maslahat so'rasa, albatta ularning ko'ngli eng yaxshi fikrga yo'l olgan bo'ladi”, dedilar-da: “ularning ishi maslahat bilan bo'ladi” degan oyatini o'qidilar. [7]

Maslahat mavzusi Alisher Navoiyning “Munshaot” asarida ham muhokama etilgan bo'lib, yosh sultonlarga, beklarga va Xusayn Boyqaroni to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzoga bergan muhim maslahatlari yozib qoldirilgan. Asarda yozilgan maktublardan birida “Birishulkim, viloyat molini maslahatlashmasdan olayotganmishsiz va bu odatga ziddir, agar so'raganingizda yo'q deyilmas edi” deya tanbeh berib o'tiladi.

Maslahatdan keyingi fazilat bu insoniylik va hamjihatlik bo'lib, Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ham o'zbek xalqining umumbashariy darajadagi fazilatlaridan biri bo'lgan bo'lgan mazkur ikki fazilat tahlil etiladi. Farobiyning ta'kidlashicha, “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”. [8] Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadidagi kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir. Yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari “Yangi O'zbekiston strategiyasi” bo'limi “Yangi O'zbekiston orzusi” qismi, “Ma'naviy taraqqiyot”

FALSAFA

bo'limi "Ma'rifatli jamiyat sari" qismi hamda "Xavfsizlik va tashqi siyosat" bo'limi "Ochiq va pragmatik faol tashqi siyosat – ustuvor vazifamiz" qismida "ma'rifatli jamiyat"ni barpo etishning zarurati, o'zbek xalqining o'ziga xosligi, madaniyati va mexanizmlari tahlil etilgan. Asarda ta'kidlanganidek, mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.[9] Mazkur mentalitetning tub mohiyatida insonni ulug'lash, uning xohish-istaklari va manfaatlarini hurmat qilish kabi milliy fazilatlar yotadi. Konsensus jarayonida ikkinchi tomonning fikri, taklifi, munosabatini inobatga olish va hurmat ko'rsatgan holda qabul qilish uning asosiy mexanizmi sifatida belgilangan. Bu mexanizmdan unumli foydalanib, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotida o'z fikri va takliflari bilan ishtirok etishiga erishish "ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirishning muhim tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqining o'ziga xos konsensus madaniyati, ko'rinishlari va amal qilish mexanizmi K.Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" monografiyasi, I.Jabborovning "O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati (etnotarixiy lavhalar)" monografiyasi, A.Ashirovning "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" monografiyasi, A.Asqarovning "O'zbek xalqining etnogenezesi va etnik tarixi" o'quv qo'llanmasida tahlil etilgan.

Shuningdek, siyosiy fanlar nomzodi D.Muitovning "Markaziy Osiyoda konsensus va hamkorlik geosiyosati: axborotlashgan jamiyatdagi dolzarb tendensiyalar", siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori S.Saidovning "Markaziy Osiyo integratsiyasi kontekstida fuqarolik jamiyatining o'rni" maqolalarida turli konfliktlarni oldini olishda o'zbek xalqining yaqin qo'shnichilik an'anasi misolida O'zbekistonning konsensus siyosati bayon etilgan.

NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning "inson qadrini ulug'lash" tamoyili asosida olib borayotgan islohotlari natijasida boshqa millat vakillari bilan xalqimiz tinch-totuv hayot kechirishmoqda.

Buning zahirida ma'rifatparvar xalqimizga xos mehmondo'stlik, insonparvarlik, bolajonlik, saxovatpeshalik va bag'rikenglik fazilatlarini muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mana shunday insoniy fazilatlarga ega bo'lgan ma'rifatparvar xalqimizning orzu-intilishlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida fuqarolarning muammolarini bartaraf etish bo'yicha mexanizmlar amaliyotga joriy etilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" g'oyasi asosida milliy davlatchiligimiz va donishmand xalqimiz yaratgan qadriyat, an'analar va madaniyat Yangi O'zbekiston va Uchinchi renessansni bunyod etishdek ulug'vor maqsadlarga safarbar etilmoqda.

MUHOKAMA

O'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan fazilatlar milliy madaniyatimizning o'zagini tashkil etib, turkiy ildiz bilan bog'liq hisoblanadi. Turkiylikka xos mardlik, matonat va lafz haloligi, bag'rikenglik, saxovatpeshalik va hojatbarorlik kabi xislatlarda yorqin ifodasini topadi. Bu fazilatlarini, ayniqsa, xalqimizning to'y-tomoshaga o'chligida, o'zi yemay, yillar davomida yig'ib-terib elga dasturxon yozishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishida, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimimizgacha bo'lgan barcha tadbirlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lib turishi kabi udumlarimizda kuzatamiz.[10]

Mazkur fazilat, xislat va udumlarning bajarilish mexanizmida konsensusga xos yakdillik, maslahat, o'zaro hamkorlik, qaror qabul qilish kabi elementlar bajariladi.

Demokratik islohotlar bilan dadil ildamlayotgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'li – yangi demokratik prinsiplarni o'zida mujassam etgan ma'rifatli jamiyat qurish, jamiyat a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini ishga solish orqali har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanish hamda eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishishdir.

Shuning uchun ham xalqimiz taraqqiyotning yangi bosqichida xalqimizga xos insonparvarlik fazilatlarini yanada rivojlantirish va bu orqali jamiyatni yanada ma'rifatli qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Xalqimizga xos mahalla-jamoatchilik fikri bilan hisoblashish madaniyati – bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni oshkorlik va shaffoflik prinsipi asosida amaliyotga joriy etilishida namoyon bo'ladi. Mazkur mexanizmni qo'llanilishi fuqarolarimizda islohotlarga daxldorlik pozitsiyasi shakllanishiga xizmat qiladi.

Daxldorlik pozitsiyasi o'ziga xos mexanizm sifatida konsensus madaniyati shakllanishida muhim o'rin tutadi. Chunki, mazkur pozitsiya shakllanishi natijasida fuqarolarning davlat va jamiyat hayotini yanada rivojlantirish uchun tashabbus, taklif va fikr-mulohazalarini erkin bildirish imkoniyati yaratiladi. Konsensus madaniyatining o'ziga xos xususiyati jamiyat a'zolari dolzarb muammolarni topib, uning yechimi bo'yicha takliflar berishidir [11]. Xuddi shu maqsadda davlat xizmatlari aholiga yaqinlashtirildi va mahalla strukturasi kompleks yondashuv asosida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar faoli tizimi yaratildi.

Kelishuv va murosa qilish – xalqimizning qadimiy an'anasiga aylanib ketgan bo'lib, tarixiy an'ana sifatida bugungi kunda “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” g'oyasi asosida rivojlantirish xalqimiz farovonligini ta'minlashda samara beradi. Chunki, xalqaro konsensus madaniyatida jamiyatning barcha a'zolarini kelishuvda ishtirok etishi yuqori baholanadi. [12] Shunday ekan Yangi O'zbekistonda jamiyat a'zolarini ma'rifatli qilishda amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini “mahallabay” va “xonadonbay” tarzda yetkazilishi yangicha samarali mexanizm bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishishda strategik qadamlardan biridir.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida o'zaro hurmat, teng manfaatli va konstruktiv muloqot yuritish orqali konsensusga erishish asosiy maqsad hisoblanadi. Chunki geosiyosiy ziddiyatlar, global iqtisodiy inqiroz va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari ortib borayotgan sharoitda eng dolzarb muammolar yechimi bo'yicha davlatlarimiz umumiy yondashuvlarni belgilab olishi, sa'y harakatlarni uyg'unlashtirishi nihoyatda muhimdir. [13]

O'zbek xalqining konsensus madaniyati – o'zbek milliy urf-odatlar va an'analari o'tkazilish jarayonida namoyon bo'ladi. Jumladan, sovchilik va nikoh jarayonida maslahat, munozara (fikrlash, o'ylash) va qaror qabul qilish kabi konsensus mexanizmlari o'rin olgan. Nikoh har ikki tarafning o'zaro kelishuvi asosida paydo bo'lib, yakdil qaror qabul qilish bilan mustahkamlanadi.

Abu Homid G'azzoliy “Ey farzand” asarida ta'kidlaganidek, turmush qurishga qaror qilgan juftlarning va har ikki tarafdagi oilalarning zarur bo'lgan joylar bilan maslahatda bo'lganlaridan so'ng xulosa chiqarishlari sunnatga muvofiq bo'ladi.[14]

Yangi O'zbekistonda jamiyat farovonligini ta'minlash va “inson qadri”ni ulug'lash tamoyili asosida o'zbek xalqi uchun muqaddas dargoh hisoblangan oilalar mustahkamligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyati tashkil etilib, oilalar farovonligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qo'llab-quvvatlash yanada kuchaytirildi. [15]

Oilada ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy muhitni yanada yaxshilash davlat ijtimoiy siyosatining muhim qismiga aylandi. Insonning barkamol bo'lib yetishishida oilaning tutgan o'rni birlamchi bo'lib, o'zbek jamiyatida oilaviy muhitning barqaror bo'lishi shaxsning taraqqiy topishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqi madaniyatida oilaviy munosabatlar asosiy rolda turadi, chunki shaxsning madaniy qiyofasi shakllanishi aynan oiladan boshlanadi.

Ma'lumki, islohotlarni amalga oshirishda loqaydlik, beparvolik, nosog'lom muhit, radikalizm kabi illatlar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu illatlarning kuchayib ketishi natijasida jamiyatda konfliktologik qarashlar paydo bo'ladi va jamiyat a'zolarining birlashish va kelishib yashashiga to'sqinlik qiladi.

Radikalizm shaxs yoki guruh o'z dunyoqarashiga, fikrlariga, hayot tarziga, prinsiplariga to'g'ri kelmaydigan har qanday tushunchani rad etib, o'z yo'lini eng to'g'ri yo'l deb bilib, qolganlarni adashganlar deb biladi. O'zgacha fikrlaydiganlarga nisbatan nafrat, kerak bo'lsa ularni majburlab o'z yo'lidan yurgizishni xohlaydi.

Yangi O'zbekistonda “ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda loqayd va beparvo insonlarni faollikka chorlash, radikal muhitni sog'lom muhitga aylantirish dastlabki muhim qadamdir. Mana shu jarayonda konsensus madaniyati bo'lgan har bir insonga ma'lumotni oshkora yetkazish, fikri bilan “hisoblashish”, murojaat madaniyatiga erishish, o'zining manfaatini amalga oshirish qaror qabul qilishda boshqa insonlarning manfaatini hisobga olish kabi mexanizmlardan foydalanish muhim deb hisoblaymiz.

XULOSA

Bizning fikrimizcha, o'zbek xalqining betakror va insonparvarlik fazilatlarini yanada yuksaltirish orqali Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va “ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi” yanada muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida har bir islohot “inson qadri”ga qaratilayotgani o'zbek xalqining insoniylik qadriyatlarini va fazilatlarini ro'yobidir.

FALSAFA

“Ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi”ni amalga konsensus madaniyatining muhim elementlari bo‘lgan quyidagi vazifalarni tatbiq etish tavsiya etiladi:

- oshkorlik va erkinlikni ta’minlash;
- murojaat madaniyatini shakllantirish;
- rahbar kadrlarni fuqarolar bilan uzviy ishlashini ta’minlash va hisobdorlik pozitsiyasida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- faol fuqarolik dunyoqarashini shakllantirish;
- amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini har bir insonga yetkazilishini ta’minlash, OAVda ayniqsa ijtimoiy roliklar sahifasini yanada ko‘proq yortishi, bu borada mahalla fuqarolar yig‘ini salohiyati va kuchini safarbar etish;
- “Islohot zanjiri” platformasi orqali barcha davlat organlarining yagona portalini joriy etish;
- “Tashabbusli budjet” loyihasi kabi loyihalarni ko‘paytirish, davlat va jamiyat hayotiga oid jarayonda fuqarolar faolligiga erishish;

O‘zbek xalqi azaldan tinchlik-totuvlikka intilib yashaganini inobatga olib qaraydigan bo‘lsak, amalga oshirilayotgan ishlarning yakuni insonga faqat foydali manfaat keltirish mexanizmini amaliyotga to‘liq tatbiq etish kerak bo‘ladi. Bu oddiy murojaat, sud jarayoni va amalga oshirilayotgan mehnat faoliyati bo‘ladimi, yakuniy maqsadga aylanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026".)
2. Питер Гилдерлоос. “Консенсус принятие решений в свободном обществе”. Год 2010. Издательство «Самиздат». Стр. 115. (Peter Gilderloos. "Consensus Decision Making in a Free Society". Year 2010. Publishing house "Samizdat". Page 115.)
3. Bazileva I., Emerson P. Konsensus. //Новый мир//. 1990. №3. (Bazileva I., Emerson P. Konsensus. //New world//. 1990. No. 3.)
4. Muqimov Z. “Amur Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot)”. Samarqand. SamDU. 2008-yil. 62-bet. (Muqimov Z. "Tuzuklari Amur Temur (historical-legal research)". Samarkand. SamDU. 2008. Page 62.)
5. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991 yil. 15-bet. (Amir Temur. "Temur's rules". T.: Publishing association named after Gafur Ghulam. 1991. Page 15.)
6. Nizomulmulk. “Siyosatnoma”. T.: “Yangi asr avlodi”. 2008. 11-bet. (Nizomulmulk. "Policy". T.: "Generation of the new century". 2008. Page 11.)
7. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al mufrad. www.ziyouz.com kutubxonasi. 2007. 44-bet. (Imam Ismail al-Bukhari. Al-adab al mufrad. www.ziyouz.com library. 2007 year. Page 44.)
8. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. T.: Yangi asr avlodi. 2018. – 286-bet. (Abu Nasr Farabi. "City of virtuous people". T.: Generation of the new century. 2018. Page-286.)
9. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. T.: “O‘zbekiston”. 2021. 305-bet. (Mirziyoyev Sh.M. "New Development Strategy of Uzbekistan". T.: "Uzbekistan". 2021. Page 305.)
10. Asqarov A. “O‘zbek xalqining etnogenezisi va etnik tarixi”. Toshkent. “Universitet”. 2007-yil. 324-bet. (Askarov A. "Ethnogenesis and ethnic history of the Uzbek people". Tashkent. "University". 2007. Page 324.)
11. Rajabov O‘.X. (2021). “Yangi O‘zbekistonda konsensus madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi”. O‘zMU xabarlari. № 1/6. - 168-171. (Rajabov O‘.Kh. (2021). "The urgency of forming a culture of consensus in new Uzbekistan". News of UzMU. No. 1/6. - 168-171.)
12. Rajabov O‘.X. (2020). “The feature social-philosophic of development consensus culture in new level of Uzbekistan’s development”. Zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. № VI. – 235-239. (Rajabov O‘.Kh. (2020). "The social-philosophical feature of development consensus culture in new level of Uzbekistan's development". Actual problems of modern science, education and upbringing. No. VI. - 235-239.)
13. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022-yil 12-noyabr. 232-son. (New Uzbekistan newspaper. November 12, 2022. No. 232.)
14. Abu Homid G‘azzoliy. Ey farzand. T.: Movorounnahr. 2005 yil. 45-bet. (Abu Hamid Ghazali. O child. T.: Movorounnahr. 2005 year. Page 45.)
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-146-sonli qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022 y., 07/22/146/0172-son. (Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-146 dated March 1, 2022. National database of legislative information, 02.03.2022, №. 07/22/146/0172.)